

OILA QURISH YOSHIDAGI YOSHLARNING IJTIMOIIY MOTIVATSIYON PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Xudoynazarov Sh. A., GDPI o'qituvchisi.

Annotatsiya. tezisda yoshlarni oila qurishdagi nikoh oldi va nikohdan keyingi motivlari haqida ma'lumotlar berilgan, oila qurish yoshidagi yigit va qizlarda yuzaga keladigan motivlarning to'g'ri tanlanmasligi oilaviy ajrimlarning sabablaridan biri sifatida ko'rilmogda.

Kalit so'zlar. oila, motiv, yetuklik, nikoh.

Annotation. this article provides information about the pre-marital and post-marital motives of young people in starting a family. The incorrect choice of motives among young men and women of family-building age is seen as one of the causes of family breakups..

Key words. family, motive, maturity, marriage.

Oilaga ta'rif berilganida, "Oila — Vatan ichidagi vatandir", deyiladi. Siz bu fikrga qo'shilasizmi? Oila ma'naviyatiga berilgan ta'riflar serqirradir. Oiladagi muhitinsonning o'ziga xos ma'naviyati, dunyoqarashi, tasavvur va e'tiqodining shakllanishida, yuksalishida muhim omil bo'ladi. Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari aynan oila bag'rida shakllanadi. Oila misoli bir qo'rg'onki, unda avlodlar kamol topadi, asrlar osha yashab kelayotgan yuksak insoniy fazilatlar, milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar asrab-avaylanadi. Oiladagi muhit, shart-sharoit, odob-ahloq qoidalariga itoatkorlik, mehr-shavqat bu go'shada tarbiya topayotgan, voyaga yetayotgan farzandlar kamolida aks etadi. Modomiki, yurt istiqboli bugungi yoshlar qo'lida ekan, ham ma'naviy, ham jismoniy, ham ma'rifiy salohiyatli navqiron avlod tarbiyasi uchun barchamiz burchlimiz.

Psixolog olimlarning taqddiqotlariga qaraganda bugungi kunda balog'otga yetish davri sezilarli darajada yoshraganligi ammo turmish qurish yosi yigtlarda kechikkanligi, qizlarda tezlashanligi yoshlardagi psixologik motivlarning o'zgarganligi oilalardagi ko'plab ajrimlarga sabab bo'lmoqda.

Nikohga yetuklikning quyidagi xususiyatlari mavjud.

Fuqarolik, huquqiy
yetuklik.

Kasb-hunar
yetukligi

Psixologik
yetuklik.

Fuqarolik xuquqiy yetuklik. Yoshlarning konustututsiyamizda belgilangan yoshga to'lganligi, saylash va saylanish huquqlariga ega ekanligi, yuridik yetuklikning belgisi hisoblanadi.

Kasb – hunar yetukligi. Oila qurishdan oldin yoshlarning oilaning iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarini qondiraolishlik darajasini shakllantirish uchun ularning kasbiy yetuklik darajasi oliy ma'lumotli bo'lishi yoki kasb egallashi muxum omil sanaladi.

Psixologik yetuklik. Turmush qurayotgan yosh oilaning oila haqidagi tushunchalari, qarashlari, farzand tarbiyasiga tayyorgarlik darajasi, nikoh nima? Degan tushunchalarga qay darajada tayyorgarligi. Ba'zi yosh qurulayotgan oilalarda oila nima? so'g'iga ham javob topaolmaslik yokida uylanish (turmushga chiqish) yoshiga

to'ldim kabi javoblari ularning oila haqidagi psixologik bilimlarini ko'rsatib bermoqda.

Nikohga yetuklik omillari qatoriga yoshlarning oilaviy hayotga ma'naviy yetukligi, ularning oila qurish motivlari, nikoh qurish yoshiga oid fikrlari va bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlarini kiritar ekanmiz, bu jihatlarning har biri qanday xususiyatga ega ekanligini ko'rib chiqamiz.

Nikohga yetuklik tushunchasi o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam rivojlanib, takomillashib boruvchi, o'z ma'naviy, axloqiy rivojida muntazam ravishda yangiliklarni o'ziga singdiruvchi mavjudotdir. Kishining yetukligi, ayniqsa, oilaviy hayotga yetukligi masalasida fikr yuritilganda, bu tushunchadan bir shartli o'lchov sifatidagina foydalaniladi.

Nikohga yetuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlari farqlash mumkin.

Turmush o'rtog'ini tanlash va turmush o'rtog'ini afzal ko'rish turmush qurayotgan yoshlarda motivatsiyon sohalari muhim ekanligi aytilad. Jinsiy tanlanish Bussning tadqiqotlariga ko'ra, erkaklar va ayollar uzoq muddatli nikoh munosabatlariga intilishda tarixan duch kelgan turli qiyinchiliklar va tashvishlarga javoban, oldingi tadqiqotlar bu farqlar uchun evolyutsion nuqtai nazarni keltirgan, chunki "turmush o'rtog'ini tanlash erkaklar va ayollarning jinsiy strategiyalari yoki moslashish muammolarini hal qilish bilan belgilanadi"

Darhaqiqat, "o'tmishda turmush o'rtog'ining reproduktiv sarmoyasi bilan ijobiy bog'liq bo'lgan xususiyatlarni afzal ko'rgan shaxslar tanlangan bo'lishi mumkin va shu tariqa genetik jihatdan beg'araz bo'lgan yoki potentsial turmush o'rtog'ining reproduktiv investitsiya qobiliyatiga mos kelmaydigan imtiyozlarni kiritgan shaxslarga qaraganda ko'proq ifodalangan bo'lishi mumkin".

Xulosa va tavsiyalar. Oilalarning tashkil topishida yoshlarda vujudga keladigan motivlar ulaning keyingi hayotlari uchun muxim hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda oilalardagi ajirimlar noto'g'ri motivlarning tanlanishi natijasida shkillanar ekan. Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida nikohning ijtimoiy motivlari ichida stereotip (sovchilik) qurilgan turmishda ajirimlar soni qolgan motivlarga qaraganda past ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi (lex.uz)
- 2.Podgotovka detey-invalidov k semeynoy i vzrosloy jizni. Posobiye dlya roditeley ispetsialistov / Pod red. YE.R. Yarskoy-Smirnovoy. Izdaniye 2 ye, dopolnennoye.

3.Saratov: OOO Izdatelstvo «Nauchnaya kniga», 2007. - 188 s.
Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.09.2021-y., 09/21/585/0888-son; 09.06.2022-y., 09/22/322/0506-son